5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON

# O'ZBEKISTONDA TA'LIM OLISHNING TARTIB – TAMOYILLARI

**Alinazarov Jahongir Zuhriddin o'g'li**
*Toshkent Davlat Yuridik Universiteti magistratura talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim olishni Konistitutsiyaviy asoslari, mustaqilligidan keying yillarda ta'lim olishning huquqiy normalar bilan mustaxkamlanishi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni qabul qilinishi va uni qayta takomillashgan holatda yangittan qabul qilinishi, mohiyati yoritib o'tilgan.Shuningdek Respublikamizda ta'lim olish bosqichlari va ta'limning turlari atroflicha yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim olish huquqi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunn, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta'lim turlari va shakillari.*

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi davlat tomonidan huquqiy tartibga solingan va davlat nazoratidadir. O'zbekiston Respublikasi Konistitutsiyasining 41-moddasida bilim olish huquqi va maktab faoliyati davlatning bosh qonuni bilan huququiy asoslangan. Davlat o'z xalqiga bepul talimni har qanday sharoitda kafolatlab beradi. Ta'lim tizimiga oid qonunchilikka nazar solsak, mustaqillikdan keyin, 1997-yilda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi yangi ta'lim tizimining huquqiy asoslarini yaratishni taqozo etdi. 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun ham ta'limni rivojlantirishga asos bo'lib hizmat qildi. Mamlakatning milliy-intellektual salohiyatini rivojlantiradigan ta'lim va tarbiya jarayoni mazkur qonun bilan tartibga solindi. Vaqt o'tishi bilan jadal rivojlanayotgan jamiyatda qator islohotlar amalga oshirildi. Rivojlanauotgan jamiyat, axborot komunikatsiyalari, ilm-fan taraqiyoti, dunyo standarti va horij tajribasi bugungi kunda talim tizimini tubdan isloh qilish va yangi qonun, konsepsiyalarni qabul qilish zarurligini yaqqol namoyon qildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha qator dasturlar ishlab chiqildi. 2020-yil 23-sentabr kuni yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni imzoladi. Yangi tahrirdagi qonun bugungi ta'lim tizimini barcha jabhalarini qamrab oldi.

Qonunning 7-moddasiga muvofiq, O'zbekistondagi ta'lim turlari quyidagilardan iborat etib belgilandi:

-maktabgacha ta'lim va tarbiya;
-umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
-professional ta'lim;
-oliy ta'lim;
-oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
-kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
-maktabdan tashqari ta'lim[123].

[123] O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni, 7-moddasi

Umumiy o‘rta ta’lim 1—11-sinflarni o‘z ichiga oladi. O‘rta-maxsus ta’lim akademik litseylarda 9 yillik tayanch o‘rta ta’lim asosida 2 yil mobaynida amalga oshiriladi. Professional ta’lim boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim darajalariga ajratiladi.

Boshlang‘ich professional ta’lim kasb-hunar maktablarida 9-sinf bitiruvchilari negizida kunduzgi ta’lim shaklida 2 yillik integratsiyalashgan dastur asosida bepul amalga oshiriladi.

O‘rta professional ta’lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida davomiyligi 2 yilgacha bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha amalga oshiriladi.

O‘rta maxsus professional ta’lim texnikumlarda davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida davomiyligi kamida 2 yil bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Qonunga ko‘ra, davlat oliy ta’lim, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek, davlat ishtirokidagi oliy, o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladi.

Nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish ularning ta’sischilari tomonidan amalga oshiriladi. Nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziya Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladi.

Shuningdek, mazkur qonun bilan 1997-yil 29-avgustdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlar o‘z kuchini yo‘qotdi[124].

Quyida ta’limga oid qonunchilik asoslarini ta’lim turlari bo‘yicha ko‘rib chiqamiz. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonunining 8-moddasiga ko‘ra:

**Maktabgacha ta’lim va tarbiya,** Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi[125], deb belgilangan. 8-moddada ta’lim turning 1-bosqichi huquqiy tartibga solingan. Bundan tashqari Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan O’RQ 3305-son qarori bilan Maktabgacha Ta’lim Vazirligi tashkil etildi va “Maktabgacha ta’lim to’g’risida”gi qonunni qabul qilinishi O’zbekistonda MTM ni faoliyatini huquqiy tartibga soldi. MTM faoliyatini davlat huquqiy kafolatlaganligini ushbu qonunni quyidagi 6-moddasida ham ko’rishimiz mumkin:

Maktabgacha ta’lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari

Har bir bola maktabgacha ta’lim va tarbiya olish huquqiga ega.

Davlat har bir bolaning umumiy o‘rta ta’lim tashkilotiga o‘qishga kirishidan bir yil oldin davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida umumiy o‘rta ta’limga majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o‘tishga bo‘lgan huquqini kafolatlaydi.

---

[124] Internet manbasi: https://daryo.uz maqola/2020/09/24/ yangi-tahrirdagi-talim-togrisidagi-qonunni-/

[125] O’zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunni, 8-moddasi

Bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishiga doir davlat kafolatlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizida maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini tashkil etish orqali ta'minlanadi[126].

**Umumiy o'rta orta maxsus ta'lim**, "Ta'lim to'grisidagi" konunning 9-moddasiga

ko'ra: Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);

tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar);

o'rta ta'lim (X — XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek ta'lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonunchilikda belgilanadi. Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim to'lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va iste'dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.[127]

---

[126] O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunni, 6-moddasi

"Ta'lim to'g'risidagi" qonunning 10-moddasi Professional ta'lim; 11-moddasi Oliy ta'lim; 12-moddasi Oliy ta'limdan keying talim bosqichlari huquqiy asoslantirilib qo'yilgan.

"Ta'lim to'g'risidagi" qonunning 15-moddasida Talim olish shakillari belgilab qo'yilgan:

15-modda. Ta'lim olish shakllari:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
- dual ta'lim;
- oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
- katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;
- inklyuziv ta'lim;
- eksternat tartibidagi ta'lim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash kabi ta'lim shakillari ko'rinishida belgilandi[128].

Bu ko'rinishda yangi taxrirdagi "Talim to'g'risida"gi qonunni qabul qilinishi ta'lim tizimimizni yanada takomillashtirish, yetuk kadrlarni tayorlash va ta'lim sifatini oshirishda poydevor bo'lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni.
3. Internet manbasi: https://daryo.uz maqola/2020/09/24/ yangi-tahrirdagi-talim-togrisidagi-qonunni-/

[127] O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni, 9-moddasi
[128] O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni, 15-moddasi